

EKSPRESSIV AGRAMMATIZMNING KO‘P OMILLI TABIATI: TIL, KOGNITSIYA VA NEVROLOGIYA KESISHMASIDA**Nazarova Sabrina Zafarjon qizi***Namangan davlat universiteti o‘zbek tili yo‘nalishi 4-kurs talabasi,**Email: nazarovasabrina046@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolada ekspressiv agrammatizm hodisasi ko‘p omilli fenomen sifatida talqin qilinadi. Klassik yondashuvlar uni sintaktik bilimlarning buzilishi deb izohlagan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlar til tizimi, kognitiv jarayonlar va nevrologik omillar o‘zaro ta‘siri natijasi sifatida ko‘rsatmoqda. Muallif ekspressiv agrammatizmni faqat sintaktik nuqson emas, balki kognitiv yuk ortishi, motor resurslarning cheklanishi hamda kommunikativ samaradorlikka yo‘naltirilgan strategik til hamda kommunikativ til ishlatish sifatida talqin etadi. Maqolada lingvistik, psixolingvistik va neyropsixologik qarashlarning kesishmasi asosida zamonaviy xulosalar beriladi.*

Tayanch so‘z va birikmalar: *ekspressiv agrammatizm, Broka afaziyasi, sintaktik buzilish, kognitiv yuk, neyropsixologiya, strategik nutq, funksional yondashuv.*

Annotation: *Expressive agrammatism is interpreted as a multifactorial phenomenon in the article. While classical approaches have explained it as a disruption of syntactic knowledge, modern research highlights it as a result of the interaction between the language system, cognitive processes, and neurological factors. The author interprets expressive agrammatism not only as a syntactic deficit, but also as a consequence of increased cognitive load, limitations in motor resources, and as a manifestation of strategic and communicative language use aimed at communicative efficiency. The article provides modern conclusions based on the intersection of linguistic, psycholinguistic, and neuropsychological perspectives.*

Keywords and phrases: *expressive agrammatism, Broca's aphasia, syntactic impairment, cognitive load, neuropsychology, strategic speech, functional approach.*

Аннотация: *Экспрессивная аграмматизм трактуется в статье как многофакторное явление. Если классические подходы объясняли его нарушением синтаксических знаний, то современные исследования рассматривают его как результат взаимодействия языковой системы, когнитивных процессов и неврологических факторов. Автор рассматривает экспрессивную аграмматизм не только как синтаксический дефицит, но и как следствие увеличенной когнитивной нагрузки, ограничений моторных ресурсов, а также как проявление стратегического и коммуникативного использования языка, направленного на повышение*

эффективности общения. В статье представлены современные выводы на основе пересечения лингвистических, психолингвистических и нейропсихологических взглядов.

Ключевые слова и выражения: *экспрессивная аграмматизм, афазия Брока, синтаксические нарушения, когнитивная нагрузка, нейропсихология, стратегическая речь, функциональный подход.*

Inson nutqi murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, unda lingvistik, kognitiv va nevrologik omillar chambarchas bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Inson miyasida tilning shakllanishi, uning ishlatilishi hamda nutqni boshqarish jarayonlari ko‘plab nevrologik, kognitiv va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadi. Til tizimidagi turli buzilishlar ichida agrammatizm alohida ilmiy e’tiborni talab qiladi. Chunki u tilning faqat grammatik tuzilishigagina emas, balki inson tafakkuri, diqqat va muloqot imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.²³ Shu bois til buzilishlarini, xususan, ekspressiv agrammatizmni o‘rganish bugungi kunda lingvistika, psixolingvistika va neyropsixologiya kesishmasida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Agrammatizm, odatda, afaziyaning ekspressiv shakllaridan birida namoyon bo‘lib, ko‘pincha, Broka afaziyasi bilan bog‘lanadi. Klassik nuqtayi nazarda agrammatizm bemorning grammatik qoidalarni qo‘llay olmasligi, jummalarni to‘g‘ri shakllantira olmasligi bilan izohlangan. Ammo keying o‘n yilliklarda olib borilgan lingvistik, psixolingvistik va neyropsixologik tadqiqotlar bu hodisani yanada kengroq talqin qilishga zamin yaratadi.²⁴ Zamonaviy qarashlarga ko‘ra, ekspressiv agrammatizm faqat grammatik bilimlarning yo‘qolishi emas, balki kognitiv yukning ortishi, motor resurslarning cheklanishi, diqqat jarayonlarning buzilishi va hatto strategik til ishlatish bilan bog‘liq murakkab hodisadir.²⁵ Shu sababli uni o‘rganishda ko‘p omilli yondashuv zarur bo‘ladi.

Ushbu maqolada ekspressiv agrammatizm fenomeni til, kognitsiya va nevrologiya kesishmasida ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi – agrammatizmni faqat sintaktik nuqson sifatida emas, balki ko‘p omilli fenomen sifatida talqin qilish, uning lingvistik, psixolingvistik va nevrologik jihatlarini birgalikda yoritishdir.

Ekspressiv agrammatizmning mohiyati va klassik qarashlar

²³ Goodglass H, Kaplan E (1983). The assessment of aphasia and related disorders. Philadelphia: Lea & Febiger.

²⁴ Caramazza, A., & Zurif, E. B. (1976). Dissociation of algorithmic and heuristic processes in language comprehension: Evidence from aphasia. *Brain and Language*, 3(4), 572–582.

²⁵ Grodzinskiy Y (2000). The neurology of syntax: Language use without Broca’s aphasia. *Behavioral and Brain sciences*, 23(1), 1-71.

Klassik neyrolingvistika maktabi vakillari ekspressiv agrammatizmni, asosan, sintaktik bilimlarning buzilishi sifatida ko‘rgan, ya’ni bunday bemorlarning nutqida grammatik tuzilmalarning sezilarli darajada buzilishi kuzatiladi. Gaplar, odatda, qisqa, soddalashtirilgan shaklda bo‘lib, yordamchi fe‘llar, bog‘lovchilar, qo‘shimchalar noto‘g‘ri ishlatiladi yoki butunlay tashlab yuboriladi.²⁶ Masalan, sog‘lom shaxs “Men bugun do‘stlarim bilan kinoga bordim” desa, agrammatik nutqda “Men kino, do‘stlar bilan” tarzida ifoda qilinadi. Bu hodisa grammatik bilimlarning buzilishi sifatida izohlangan va ko‘plab klassik tadqiqotlarda tilning sintaktik tizimi asosiy “zarar ko‘rgan” komponent sifatida qaralgan²⁷.

Ammo keyinchalik kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bunday bemorlarning tilni tushunish qobiliyati ko‘p hollarda saqlanib qoladi. Ya’ni, ular murakkab sintaktik tuzilmalarni anglay olishadi, biroq ishlab chiqishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu esa agrammatizmni faqat “sintaksisning yo‘qolishi” sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatdi²⁸.

Psixolingvistik yondashuvlarga ko‘ra, agrammatizm sintaktik bilimlarning to‘liq yo‘qolishi emas, balki nutq ishlab chiqarishda kognitiv yukning oshishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, oddiy gap tuzishda bemor ancha muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin, biroq murakkab gap tuzishda resurslar yetishmasligi sababli gapni soddalashtirishga majbur bo‘ladi. Shunday qilib, agrammatik nutq ko‘pincha strategik tanlov natijasidir: bemor kommunikativ maqsadga erishish uchun eng oson shakllarni qo‘llaydi. Tadqiqotlarda sog‘lom kishilar ham diqqatning pasayishi yoki charchoq holatida “agrammatik” jumlar tuzishi qayd etilgan. Bu esa agrammatizmning normal nutq mexanizmlaridagi resurs tanqisligi bilan umumiylikka ega ekanini ko‘rsatadi²⁹.

Nevrologik tadqiqotlar ekspressiv agrammatizmning Broka zonasi (chap yarimsharning frontal qismi) bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq so‘nggi neyroimaging (fMRI, PET) tadqiqotlari shuni aniqladiki, agrammatizm faqat bitta soha bilan chegaralanmaydi. Balki frontal korteks, parietal korteks va hatto bazal gangliya kabi boshqa tuzilmalar ham jarayonda ishtirok etadi. Shuningdek, agrammatizm turli tillarda turlicha namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida asosan yordamchi fe‘llar va predloglar tushib qoladi, o‘zbek tilida esa hol

²⁶ Kolk H.H & Heeschen C. (1992). Agrammatism, para-grammatism and the management of language. *Language and Cognitive processes*, 7(2), 89-129.

²⁷ Menn, L., & Obler, L. K. (1990). *Agrammatic Aphasia: A Cross-Language Narrative Sourcebook*. John Benjamins.

²⁸ Friedmann, N., & Grodzinsky, Y. (1997). Tense and agreement in agrammatic production: Pruning the syntactic tree. *Brain and Language*, 56(3), 397-425.

²⁹ Thompson, C. K., & Shapiro, L. P. (2007). Complexity in treatment of syntactic deficits. *American Journal of Speech-Language Pathology*, 16(1), 30-42.

qo‘shimchalari ishlatilmay qoladi, rus tilida esa fe‘l zamonlari ko‘p buziladi. Bu tilning morfosintaktik tizimiga qarab agrammatizm o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi³⁰.

Agrammatizmni kognitiv yondashuvda tushuntirishda “resurslarni tejash mexanizmi” konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bemorlar murakkab vaziyatlarda gapni soddalashtirish orqali kommunikativ samaradorlikka erishishga intiladilar. Bu yondashuvga ko‘ra, agrammatizm sintaktik bilimlarning yo‘qolishi emas, balki strategik moslashuvidir. Ya’ni, bemorlar murakkab tuzilmalarni bilsa ham, ularni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan resurslar yetishmagani sababli “qulayroq” variantlarni tanlaydi. Logopedik amaliyotda agrammatizmni faqat grammatik nuqson sifatida baholash yetarli emas. Bemorning nevrologik holati, kognitiv resurslari va kommunikativ ehtiyojlari inobatga olinishi kerak³¹.

Zamonaviy yondashuvlarda logopedik terapiya shunchaki “to‘g‘ri grammatika”ni qaytarish emas, balki bemorning samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, bemorga qisqa jumladan foydalanib ham ma’no yetkazish, multimodal muloqot (imo-ishora, yozuv, piktogrammalar)dan foydalanish o‘rgatiladi.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agrammatizmning namoyon bo‘lish shakllari har bir tilning grammatik tizimiga bog‘liq:

Ingliz tilida – yordamchi fe‘llar va predloglarning yo‘qolishi.

Rus tilida – fe‘l zamonlari va jins-son kategoriyalarining buzilishi.

O‘zbek tilida – ko‘proq hol qo‘shimchalari va yordamchi fe‘llar tushib qoladi, lekin gap tartibi saqlanadi³².

Bu tilga xos tafovutlar agrammatizmni universal mexanizm sifatida ham, tilga xos hodisa sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuvlar nutq ishlab chiqarishdagi muammolarni faqat grammatika nuqsoni sifatida talqin qilgan va bemorlarning tilni tushunish qobiliyati ko‘pincha yetarlicha baholanmagan.

Ekspressiv agrammatizmning mohiyati va zamonaviy yondashuvlar

Zamonaviy tadqiqotlar (Miceli, 1983; Gibson, 2019) ko‘rsatadiki, agrammatik bemorlar ba’zi hollarda murakkab sintaktik tuzilmalarni nafaqat tushunish, balki ishlab chiqishga ham qodir bo‘lishadi. Bu esa sintaktik bilimlar yo‘qolmaganini, balki nutq ishlab chiqarish jarayonida resurslarni tejash strategiyasi qo‘llanilayotganini anglatadi. Masalan, bemor “Men bugun do‘stlarim bilan kinoga bordim” jumlasini o‘rniga “Men kino, do‘stlar bilan” deya gapirishi mumkin. Bunda asosiy ma’no saqlangan, lekin grammatik shakllar

³⁰ Friederici, A. D. (2011). The brain basis of language processing: From structure to function. *Physiological Reviews*.

³¹ Kertesz, A. (2006). *Western Aphasia Battery-Revised (WAB-R)*. PsychCorp.

³² Bastiaanse, R. (2011). The retrieval and inflection of verbs in aphasia. In *Verb and Sentence Processing* (pp. 175–202). Springer

soddalashtirilgan. Bu holat ekspressiv agrammatizmni ratsional strategiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ekspressiv agrammatizm ko‘pincha Broka zonasi shikastlanishi bilan bog‘liq, biroq neyroimaging tadqiqotlari (Caplan, Alpert & Waters, 1998) ko‘rsatadiki, frontal va parietal korteks ham sintaktik jarayonlarda faol ishtirok etadi. PET va fMRI tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agrammatik nutq nafaqat sintaktik jarayonlarning buzilishi, balki motorik rejalashtirish va kognitiv nazorat mexanizmlarining ham yetishmovchiligi bilan izohlanadi. E.Gibson (2019) ta’kidlaganidek, inson tili samaradorlik tamoyiliga asoslangan: odamlar kognitiv resurslarni tejash uchun grammatik jihatdan murakkab shakllardan qochib, sodda tuzilmalarni tanlashi mumkin. Shu sababli agrammatik nutq ko‘pincha ratsional tanlov sifatida yuzaga keladi. Sog‘lom kishilarda ham charchoq, diqqatning susayishi yoki ortiqcha kognitiv yuk sharoitida “agrammatik” chiqishlar kuzatilishi bunga dalildir (Bates & Wulfeck, 1989).

Agrammatizm tillararo farqlarda turlicha namoyon bo‘ladi:

Ingliz tilida – predloglarning qisqarishi yoki tushib qolishi.

O‘zbek tilida – hol qo‘shimchalari va ravishdosh shakllarining tushib qolishi.

Rus tilida – otlarning kelishik qo‘shimchalari noto‘g‘ri qo‘llanishi.

Bu farqlar shuni ko‘rsatadiki, ekspressiv agrammatizm tilning ichki qoidalarini buzmaydi, balki ularni soddalashtirilgan shaklda qo‘llaydi (Menn, 1990).

Ekspressiv agrammatizmni davolash va tuzatishda klassik logopedik yondashuvlar grammatik shakllarni tiklashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy terapiya kommunikativ samaradorlikni oshirishga e’tibor qaratmoqda. Logopedik mashg‘ulotlarda: grammatik shakllarni mashq qilish, vizual ko‘mak (rasmlar, diagrammalar)dan foydalanish, kognitiv yukni kamaytirish uchun qisqa topshiriqlar berish, interaktiv suhbatlar orqali real kommunikativ vaziyatlarni mashq qilish samarali hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekspressiv agrammatizmni faqat sintaktik buzilish sifatida talqin qilish yetarli emas. U til, kognitsiya va nevrologiya kesishmasida yuzaga keladigan ko‘p omilli fenomendir. Ekspressiv agrammatizm ba’zan grammatik bilimlarning yo‘qolishi emas, balki kognitiv resurslarni tejash strategiyasi sifatida yuzaga keladi. Turli tillarda u turlicha namoyon bo‘lsada, tilning ichki grammatik qoidalariga muvofiq qoladi. Zamonaviy logopedik yondashuvlar grammatikani tiklashdan ko‘ra samarali kommunikatsiyani ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Shunday qilib, ekspressiv agrammatizmga ko‘p omilli, lingvistik-psixolingvistik-neyropsixologik yondashuv talab etiladi. Bu esa bemorlarning nutqini yanada chuqurroq tushunish, diagnostika va terapiyada innovatsion metodlarni qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badecker, W., & Caramazza, A. (1985). On considerations of method and theory governing the use of neuropsychological evidence in cognitive science. *Cognitive Neuropsychology*, 2(2), 91–115.
2. Caplan, D., Alpert, N., & Waters, G. (1998). Effects of syntactic structure and propositional number on patterns of regional cerebral blood flow. *Journal of Cognitive Neuroscience*, 10(4), 541–552.
3. Caramazza, A., & Zurif, E. B. (1976). Dissociation of algorithmic and heuristic processes in language comprehension: Evidence from aphasia. *Brain and Language*, 3(4), 572-582.
4. Mary-Louise Kean. *Agrammatism*. London – Academic Press: 1985.
5. Ibodullayev Z. *Tibbiyot psixologiyasi*. Toshkent – Zamon nashr: 2019, 495b.
6. Aripov Z, Oripova O. Nutq buzilishining turlari va xususiyatlari (maqola).
7. Sharipova S. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda muloqot buzilishi muammosining nazariy tahlili (maqola). *Analytical Journal of Education and Development*: 2023.
8. Goodglass H, Kaplan E. *The Assessment of Aphasia and Related to Disorders*. Philadelphia – Lea & Febriger: 1972.
9. Levelt M. *Speaking: From Intention and Articulation*. Cambridge – MIT Press: 1989.
10. Fierderici A.D. “The time course of syntactic activation during language processing: A model based on Neuropsychological and Neuropsychological data” - *Brain and Language journali*: 1995.
11. Fierderici A.D. “Towards a Neural Basis of Auditory Sentence Processing”.
12. Garrett, M. F. (1992). Disorders of syntactic processing. In M. T. Sarno (Ed.), *Acquired Aphasia* (3rd ed., pp. 231–263). Academic Press.
13. Zurif, E. B., & Pinango, M. M. (1999). The reality of Broca’s aphasia. *Brain and Language*, 68(1–2), 137–139.
14. Grodzinsky, Y. (1990). *Theoretical perspectives on language deficits*. MIT Press.
15. Linebarger, M. C., Schwartz, M. F., & Saffran, E. M. (1983). Sensitivity to grammatical structure in so-called agrammatic aphasics. *Cognition*, 13(3), 361–392.
16. Caplan, D., Waters, G. S., DeDe, G., Michaud, J., & Reddy, A. (2007). A study of syntactic processing in aphasia I: Behavioral (psycholinguistic) aspects. *Brain and Language*, 101(2), 103–150.